

TURKISTON O'LKASIDA YOSH BUXTOROLIKLAR HARAKATI

Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi.

Rahimova Nigina Nabi qizi

Osiyo xalqaro universiteti Tarix ta'lif yo'naliishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15277304>

Annotatsiya. Buxoro ajdodlari aql zakovatining necha asrlar naryog 'idan kelajak avlodga qoldirgan buyuk va bebahoe ne'mati. U markaziy Osiyoda SHarq shaharlari milliy o'ziga xosligini to'laligicha saqlab qolgan yagona shahardir. Qadimiy tor ko'chalar turli-tuman bozorlar, savdo va saylgoh maydonlari o'zida SHarq ruhi va issiq nafasini aks ettirib turibdi. Buxoroiy sharif yuragimizga jon qadar yaqin bu ulug' va muqaddas maskan nafaqat Islom olamida, balki jahonda ham dovrug' taratgan buyuk go'shalardan biridir. Mashhur tarixnavislarning shahodat berishlaricha, u amirliklaru – xonliklar davrida 800 yil mobaynida mamlakat poytaxti bo'lib, kelganligi ham Buxoroning ijtimoiy-siyosiy va madaniy – ma'rifiy hayotda o'z mavqega ega jonligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Yosh Buxoroliklar, Turkiston, Ufa, Boqchasarov, Turon, Nozirlar Kengashi, Kolesev.

Yosh buxoroliklar — Buxoro amirligidagi jadidlar partiyasi (firqasi). Dastlab „Tarbiyai atfol“ („Bolalar tarbiyasi“) maxfiy jamiyat shaklida tuzilgan. 1910-20 yillarda „Yosh buxoroliklar“ partiyasi deb atalgan. Unga taraqqiyat parvar ziyorolar, savdogarlar va shahar kambag' allari vakillari kirgan. Ular boshida mavjud amirlik tuzumi doirasida demokratik islohotlar o'tkazish, konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish orqali amirning mutlaq hokimligini cheklab qo'yish tarafidori bo'lgan. Abdulvohid Burhonov, Mukammil Burhonov, Sadreddin Ayniy, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev (Usmonxo'ja), Otaulla Xo'jayev, Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov), Homidxo'ja Mehriy, Muso Saidjonov, Mirzo Siroj Hakim Yosh buxoroliklarning dastlabki tashkilotchilari edi. Keyinchalik uning faoliyatida Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va Muhiddin Mansurov katta rol o'ynashdi. Yosh buxoroliklar iqtidorli yoshlarni Istanbul, Qozon, Ufa, Boqchasaroya o'qishga jo'natdi. Ular partiyaning moddiy mablag'i hisobidan ta'lif olishgan. Fayzulla Xo'jayev va Muhiddin Mansurov partiyaga katta mablag' ajratgan. Istanbulda „Buxoro ta'limi maorif jamiyat“ tashkil qilinib, jamiyat a'zolari Turkistonda maorif tizimini rivojlantirishda muhim ishlar qilishdi. Jamiyatning ko'magi bilan Abdurauf Fitrat va boshqalar taraqqiyat parvarlarning asarlari Istanbulda nashr qilinib, Turkiston mintaqasiga tarqatildi. Yosh buxoroliklarning maqsadi yangi usul

maktablarini ochish, bolalarning savodini tezroq chiqarish, ijtimoiy ongini o'stirish, maktab, madrasa, o'quv tizimini isloq qilish edi. Buxoroda boshlangan harakat tezda Shaxrisabz va Karkigacha tarqaldi. 1912-yil Buxoroda dastlabki gazetalar — tojik tilida „Buxoroyi sharif“ va o'zbek tilida „Turon“ chiqqa boshladi. Gazetalarni moddiy jihatdan ta'minlash va nashr ishlarini yo'lga qo'yishda Muhiddin Mansurov va Mirzo Siroj Hakim muhim rol o'synaydi. Biroq 1913-yil yanvarda bu gazetalarning faoliyati rus ma'murlari tomonidan taqiqlab qo'yildi. Istanbulda ta'lim olgan ko'plab buxoroliklarning yurtiga qaytishi bilan maorif ishlari yana jonlandi. 1914-yildan boshlab Yosh buxoroliklar ma'rifatchilikdan siyosat sohasiga o'tdilar. Yosh buxoroliklar amirlik tuzumini isloq qilish to'g'risida dadil fikrlar bilan maydonga chiqishdi. Ularning ijtimoiy, siyosiy, ma'rifatparvarlik faoliyati partiya mazmunida endilikda yangicha maqsad va yo'naliш kasb etdi. Buxoroda „Ma'rifat“ kutubxonasi va „Barakat shirkati“ tuzilib, ular kitoblar nashr qilish va xorijda chiqarilgan turli adabiyotlar, gazeta va jur.larni Buxoroda tarqatish bilan shug'ullanadilar. Bu ishlarda Abdulvohid Burhonov, Ahmadjon Hamdiy, Mirzo Siroj Hakim faollik ko'rsatishdi. Biroq ularning ma'rifatparvarlik intilishlari avval amir Abdulahad, so'ngra uning o'g'li Olimxon tomonidan katta qarshilikka uchradi. 1917-yil fevral inqilobi Yosh buxoroliklar ichida kuchlar nisbatining qayta guruxlanishini tezlashtirdi. Astasekin isloq qilish tarafдорлари bo'lgan jadidlarga Abdulvohid Burhonov, islohot sohasida faol harakatlarni qo'lllovchi, nisbatan oz sonli yosh jadidlarga Abdurauf Fitrat yetakchilik qildi. Yosh buxoroliklar Petrograddagi Muvaqqat hukumatga amirlikda demokratik islohotlar o'tkazishni so'rab, 2 marta telegramma yubordi, Abdurauf Fitrat va Usmonxo'ja Po'latxo'jayev Petrogradga jo'natildi. Ular Rossiyadan maxsus komissiya kelayotgani sababli Orenburgdan Buxoroga qaytishdi. Rus rezidenti Aleksander Yakovlevich Miller Buxoroda Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burhonov va boshqalar bilan uchrashib, Yosh buxoroliklar talablari bilan qiziqdi. Yosh buxoroliklar yangi usul maktablari ochish, matbuotga erkinlik berish, xalq hukumati tuzish talablarini ilgari surdi. Buxoro amiri Olimxon Miller va uning yordamchisi Shulga tuzgan manifest matnini ayrim tuzatishlar bilan farmoni oliy tarzida e'lon qildi (1917-yil 7 aprel) Amir farmonida nufuzli kishilardan iborat majlis tuzish, davlat xazinasini ta'sis etish va mamlakat byudjetini belgilash, poytaxtda bosmaxona ochish, sanoat va savdoni rivojlantirish, soliklarni tartibga solish, amaldorlar ustidan nazorat o'rnatish va ularga moyana to'lash kabilar tilga olingan edi. Yosh buxoroliklarning Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va Usmon Xo'jayev boshchiligidagi so'l qanoti farmon e'lon qilingan kunning ertasiga Buxoro shahrida katta namoyish uyushtirdi va Registonda miting o'tkazdi (qarang Buxoroda 1917-yil aprel namoyishi). 14 aprelda amir o'z farmonini bekor qildi. Yosh buxoroliklar endi amir hokimiyatiga qarshi yashirin kurash yo'liga o'tdi. Ular Buxoro shahrini tark etishga majbur bo'ldi va Yangi Buxoro (Kogon)ga kelib

o‘rnashdi. Kogonda ular safiga Buxorodan avval chiqib ketgan yirik savdogar Muhiddin Mansurov o‘g‘illari (Abdulqodir, Amin, Isom Muhiddinov) va boshqalar bilan kelib qo‘shildi. 1917-yil aprel voqealari Yosh buxoroliklar partiyasi ichidagi bo‘linishni chukurlashtirdi va unda Abdulvohid Burhonov boshchiligidagi o‘ng qanot vaqtinchalik ustun keldi. Keyinchalik Yosh buxoroliklar partiyasidan qisman isloxrtlar o‘tkazish tarafdori bo‘lgan jadidlarning ulamolar bilan bog‘langan Ikrom domla boshchiligidagi guruhi ajralib chiqdi. Yosh buxoroliklar safidan yirik sarmoyadorlar chiqib, unga ko‘proq shahar kambag‘allari kirdi.

1917-yil oktabr-noyabr oyalarida Petrograd va Toshkentda sodir bo‘lgan voqealar Buxoro amirligida katta akssado berdi. Toshkent va Farg‘onadagi jadidlar Turkistonda muxtoriyat e’lon qilish uchun harakat qilgan bo‘lsa, Yosh buxoroliklar Buxoroda amirning istibdod tuzumiga karshi kurashni davom ettirdi. Yosh buxoroliklar partiyasi ichida turli guruhlarning borligi, karashlarning xilma-xilligi tufayli yagona dastur tuzishga ehtiyoj tug‘ildi. Markaziy qo‘mita bu vazifani 1917-yil noyabrdan Abdurauf Fitratga topshirdi. Abdurauf Fitrat bu paytda Samarqandda chiqayotgan „Hurriyat“ gazetaning bosh muharriri edi. Markaziy qo‘mita Abdurauf Fitrat tomonidan 1918-yil yanvarda yozilgan Yosh buxoroliklar partiyasining dasturini tasdikladi va islohot loyihasi sifatida e’lon qildi. Unda mamlakatda konstitutsiyaviy monarxiya o‘rnatish, Buxoroning iqtisodiy, siyosiy va harbiy mustaqilligini ta’minlash, madaniy taraqqiyot, dehqonchilik va soliqtizimi masalalariga alohida e’tibor berildi, zamonaviy armiyani tashkil etish, 2 yillik majburiy harbiy xizmatni joriy qilish, davlat hisobidan maktablar va oliy o‘quv yurtlari ochish, 10 nozirlikdan iborat Nozirlar kengashi tuzish taklif etildi. Fayzulla Xo‘jayev Abdurauf Fitrat loyihasining ancha cheklanganligini tanqid qilib, unda boshqaruvning respublika usulini joriy etish talab qilinmaganligini ta’kidladi. Okt. to‘ntarishidan keyin sovet Rossiysi bilan Buxoro o‘rtasidagi munosabatlar yomonlashdi. Qo‘qon shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan Turkiston Muxtoriyati hukumatini qizil askarlar va arman dashnoqlarining qurolli kuchlari yordamida 1918-yil 19-12 fevralda agdarib tashlagan bolsheviklar endi Buxoroda bir zarb bilan amirlik hokimiyatini ham tugatmoqchi edi. Ular shu maqsadda Fayzulla Xo‘jayev boshchiligidagi Yosh buxoroliklarni qo‘llabquvvatlashdi. Yosh buxoroliklar esa o‘z kuchlari bilan hukumatni qo‘lga ololmasdi. 1918-yil fevral oyining oxirida Turkiston XKS raisi F. I. Kolesov Ashxoboddan Toshkentga kaytayotganda Qo‘qon shahrida Yosh buxoroliklar rahbarlari bilan uchrashib, amir hokimiyatiga qarshi kurashda o‘z „xizmat“ini taklif qildi. Yosh buxoroliklarning 7 kishidan iborat inqilobiy qo‘mitasi (rais-Fayzulla Xo‘jayev) tuzildi. Ana shunday murakkab bir vaziyatda Buxoroda 1918-yil mart fojialari sodir bo‘ldi (qarang Kolesov voqeasi). Oqibatda 3 mingdan ortiq Yosh buxoroliklar o‘ldirildi. Buxorodan tashqari G‘ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Qorako‘l tumanlari va Chorjo‘y,

Xatirchi, Karmana, Qarshi, Shahrisabz bekliklarida ham minglab kishilar jadidliqda nohaq ayblanib, qatl etildi. Yosh buxoroliklar amirlik hududidan darxrl chiqib ketishga majbur bo‘ldi va Turkiston respublikasidan siyosiy boshpana so‘radi. Sovet Turkistoni rahbarlari Yosh buxoroliklarga noxush munosabatda bo‘ddi. Muhojirlikdagi Yosh buxoroliklarning ko‘pchiligi ocharchilik natijasida qirilib ketdi. Yosh buxoroliklar partiyasida g‘oyaviy tushkunlik, guruhbozlik va parokandalik yuz berdi. Muhojirlikning dastlabki davrida (1918-yil mart-iyun) Fayzulla Xo‘jayev Yosh buxoroliklar qo‘mitasining raisi sifatida safdoshlarini ishga joylashtirish va moddiy jihatdan ta’minlash bilan faol shug‘ullandi. Toshkentda 1918-yil aprel-may oylarida Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev boshchiligidagi Yosh buxoroliklarning so‘l eserlar guruhi tashkil topdi. Samarqanddagi shunday guruhga Otaulla Xo‘jayev rahbarlik qildi (bu guruh 1918-yil 25 sentabrgacha ishladi). Muhojirlikning 2davrida (1918-yil o‘rtalaridan to 1919-yil gacha) RSFSR va Turkiston Millatlar ishi bo‘yicha komissarliklari krshida Yosh buxoroliklarning bo‘limlari ochildi, Fayzulla Xujayev Turkiston respublikasining RSFSR hukumati huzuridagi muxtor vakolatxonasida Yosh buxoroliklar partiyasining bo‘limini tashkil qildi (1918-yil oktabr). Buxoro amirligida demokratik g‘oyalarni targ‘ib qilish uchun Yosh buxoroliklar tomonidan oyida 2 marta o‘zbek va tojik tillarida jurnal nashr etila boshlandi. 1918-yil 16 noyabr da Moskvada Yosh buxoroliklarning Turkiston MIKdagi muxtor vakolatxonasi yig‘ilishida Fayzulla Xo‘jayev tayyorlagan dastur (programma) kabul kilindi. Unda Buxorodagi ijtimoiy tuzum va xalq ahvoli yoritildi, Buxorodagi amir hukumatini ag‘darib tashlash uchun tashviqotchi xodimlar tarbiyalash, Buxoro va Turkiston xalklari bilan aloqa bog‘lash, amirga qarshi xalq ko‘zg‘olonini tayyorlash va unga rahbarlik qilish, qo‘zg‘olonchilarni qurolyarog‘ bilan ta’minlash masalalari ko‘zda tutildi. Yosh buxoroliklarning maqsadi — Buxoroda demokratik xalq respublikasi o‘rnatish, deb e’lon etildi. 1919-yil o‘rtalariga kelib, Yosh buxoroliklarning Toshkent, Samarqand, Mari, Karki, Kattaqo‘rg‘onda bo‘limlari va Kogonda shahar byurosi tuzildi. Shu yil dek.gacha ularning 3 marta qurultoyi chaqirildi. 1920-yil yanvarda Toshkentda Fayzulla Xo‘jayev boshchiligidagi inqilobchi Yosh buxoroliklar partiyasi Turkiston Markaziy byurosi tashkil etildi. 1920-yil 15 apreldan Yosh buxoroliklar partiyasining organi „Uchqun“ gazeta chika boshladi (muharrir — Fayzulla Xo‘jayev). U Toshkentda chop qilinib, Buxoroda maxfiy ravishda tarkatildi. Inqilobchi Yosh buxoroliklar partiyasining Turkiston Markaziy byurosi 1920-yil 13-14 iyundagi birlashgan konferensiyasida Fayzulla Xo‘jayev tuzgan dasturni kabul qildi. Dastur „Zulmga qarshi birlashingiz!“ degan shior va kirish qismi bilan boshlanadi. Bu qismda Buxoroning umumiylahohi va Yosh buxoroliklarning asosiy maqsadlari, 2qismida esa Yosh buxoroliklarning amaliy takliflari, islohot va mamlakatni idora qilishni tashkil etish rejasi bayon etildi. Shariat-adliya ishlarini olib borishning negizi deb e’tirof kilindi. Dasturda amirlikni qurol kuchi bilan ag‘darib tashlash va

Buxoroni demokratik xalq respublikasi deb e'lon qilish talabi qo'yiladi. Katta boylar qo'lidagi yerlarni musodara qilish, bepul boshlang'ich ta'lim joriy etish, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning ahvolini yaxshilash yo'lida amaliy choratadbirlar ko'rish zarurligi ta'kidlanadi. Markaziy byuro Buxoro xalqi va askarlariga karata o'zbek va tojik tillarida „Xitobnom“ chiqarib, amir hokimiyatini ag'darib tashlash uchun xalq qo'zg'oloni boshlashga da'vat qildi. 17.000 nusxa xitobnom va 10.000 nusxa partiya dasturi tarkatildi. Yosh buxoroliklar tashkilotlari butun amirlik hududi bo'ylab tuzilgan, hatto Eski Buxoroda uning 12 sho'basi mavjud edi. Bolsheviklar Yosh buxoroliklardan amirlik hokimiyatini ag'darishda foydalandi. Yosh buxoroliklar ham taktik maqsadlarni ko'zlagan holda bolsheviklar bilan yaqinlashdi. 1920-yil 2 sentabrda Turkfront qo'mondoni M. V. Frunze boshchiligidagi qizil askarlar keskin janglardan so'ng Buxoro shahrini bosib oldi (qarang Buxoro bosqini). Amir Olimxon hokimiyati ag'darib tashlandi. Xalq Nozirlar Sho'rosi, Inqilobiq qo'mita va BKP MKning umumiy yig'ilishida (1920-yil 14 sentabr) 9 kishidan iborat Butun Buxoro inqilobiq qo'mitasi (raisi-Abdulqodir Muhiddinov) va respublika hukumati — 11 kishidan iborat Xalq Nozirlar Sho'rosi (raisi — Fayzulla Xo'jayev) tuzildi (qarang Buxoro Xalq Sovet Respublikasi). Yosh buxoroliklar o'z islohotchilik g'oyalarini yangi hukumatdagi faoliyati davomida amalga oshirishga harakat qildi. Buxoroda amirlik tuzumini ag'darib tashlashdek o'z tarixiy vazifasini bajargan Yosh buxoroliklar partiyasining a'zolari 1920-yil 11 sentabrda umumiy asosda Buxoro kompartiyasi safiga kirdi. Yosh buxoroliklar partiyasining ayrim a'zolari (Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulhamid Oripov va boshqalar) keyinchalik Buxorodagi istiqlolchilik harakati saflariga o'tib, kizil askarlarga karshi kurashda katnashdi. 1923-yil iyunda Moskvaning qat'iy talabi bilan Otaulla Xo'jayev (tashqi ishlar noziri), Abdurauf Fitrat (maorif noziri), Sattor Xo'jayev (moliya noziri), Muinjon Aminov (Ekoso raisi) va boshqalar sobiq Yosh buxoroliklar lavozimlaridan olinib, Buxoro davlati hududidan chiqarib yuborildi. Yosh buxoroliklar safidagi jadidlarning deyarli hammasi 30 yillarning o'rtalarida qatag'on qilindi.

Xulosaqilib shuni aytish lozimki, shu davlarning bir qismi hisoblangan

– tengdoshi Buxoroi Sharifning muqaddas tarixi har inson qalbini to'lqintiradigan mo'jizalar kuchiga ega. Buxoro qadimdan to hozirga madaniyat va ilm – fan markazi bo'lib kelgan va davom etib kelyapti. Shunday ekan XX asr davomida Buxoroda juda ko'p ilmiy – tarixiy muassassalar faoliyat ko'rsatgan. Ular ma'lum bir davrda rivojlanib ma'lum bir davrda tarix sahnasidan ketgan. Masalan: Buxoro amirligi davrida ma'naviy – ilmiy hayotda nazar tashlasak, bu davrda ijod qilgan amirlar, tarixnavislar, ko'pchilagini tashkil etadi. Ulardan Ahmad Doniy, Sadriddin Ayniy va boshqalar o'z asarlari, ijodlari bilan xalq ishonchiga kirib borganlar va ilm – ma'rifatni rivojlantirishga sabab bo'lganlar. Respublika davrida (1920-1924) yillar esa Buxoroda

ilmiy – jamiyat tashkil etib shu tashkilotning rahbarlari Fitrat, Otajon Payrov Sulaymoniy, Abduvohid Burxonov, Sadriddin Ayniyalar xalqni ma’rifatli qilishga madaniyatni yuksaltirishga harakat qilganlar. Sho‘ro 48 davrida esa ilmiy – tarixiy muassasalar deyarli rivojlangan edi. Qadrlar siyosatdan ham bilsa bo‘ladi. Mustaqillik yillarda unut bo‘lgan qadimiy madaniyatimiz tiklandi, ilmiy – tarixiy muassasalar faoliyatiga keng yo‘l ochib berildi. Hozirda esa ilmiy tarixiy muassasalar soni ko‘payib rivojlanib bormoqda. Ularni yanada rivojlantirib boyitish biz yosh avlodlarning asosiy vazifalarimizdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Ярашова, М. . (2024). ЖАҲОН ЭТНОЛОГИЯСИ ФАНИ ВА УНИ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МЕТОДОЛОГИЯСИ. *Modern Science and Research*, 3(10), 362–368. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/44901>
2. Ярашова, М. (2024). БУХОРО ВОҲАСИДА МАТО ВА МАТО ТАЙЁРЛАШИ УСУЛЛАРИ. *Modern Science and Research*, 3(11), 782–787. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48057>
3. Yarashova Mohlaroyim Shuhratovna. (2024). Muyiddin Ibn Arabiyining Tasavvuf Ta’limotida Tahsil Olgan Ayol Ustozlari Va Ta’lim Bergan Ayol Shogirdlari. *Miasto Przyszlosci*, 52, 622–625. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4679>
4. Yarashova, M. (2024). ILK O’RTA ASR MANBALARIDA KIYIM-KECHAKLAR VA ULAR BILAN BOG’LIQ ATAMALAR TAVSIFI. *Modern Science and Research*, 3(12), 621–632. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58456>
5. Ярашова, М. (2025). ПАРАНЖИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ. *Modern Science and Research*, 4(1), 160–168. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60323>
6. Yarashova, M., Sa’dullayev, U., & Yo’ldosheva, F. (2025). BUXORO VOHASI AYOLLARINING AN’ANAVIY BOSH KIYIMLARI- DO‘PPI VA RO‘MOL. *Modern Science and Research*, 4(1), 600–607. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/64116>
7. Yarashova , M. ., & Sultonova, M. (2025). BUXORO VOHASI DAFN MAROSIMI KIYIMLARI VA ULAR BILAN BOG’LIQ IRIM-SIRIMLAR. *Modern Science and Research*, 4(1), 352–358. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/63674>

8. Yarashova, M. (2025). EDVARD TAYLOR –ETNOLOGIYADA EVOLYUTSIONISTIK MAKTAB ASOSCHISI. *Modern Science and Research*, 4(2), 1005–1012. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/68483>
9. Yarashova, M., Yuldasheva, F., & Haqqulov, M. (2025). TA'LIM OLİSH TARTIBI: YANGILANISH VA O'ZGARISHLAR. MASOFAVIY, DUAL VA INKLYUZIV TA'LIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 73–80. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/70712>
10. Haqqulov, M., Yarashova, M., & Yuldasheva, F. (2025). TARIXIY KARTOGRAFIYANING ASOSIY YO'NALISHLARI, SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI. *Modern Science and Research*, 4(2), 81–91. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/70714>
11. Gulyamov, A., Yarashova, M., & Karimov, S. . (2025). O'RTA ASRLARDA G'ARBIY YEVROPADA SHAHAR-QAL'A, SHAHAR-CHERKOV, SAVDO O'BYEKTI AHAMIYATIGA OID SHAHARLARNING VUJUDGA KELISHI. *Modern Science and Research*, 4(3), 122–131. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/71868>
12. Yarashova , M. . (2025). IBN ARABIYNING INSON BORLIG'IGA DOIR QARASHLARI: ILM, RUH VA HAQIQAT. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(1), 72–74. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/zdif/article/view/64262>
13. Gulyamov, A., Yarashova, M., & Karimov, S. (2025). РОЛЬ ХАНА УЗБЕКА В РАСПРОСТРАНЕНИИ ИСЛАМА В ЗОЛОТОЙ ОРДЕ. *Modern Science and Research*, 4(3), 146–154. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/72380>
14. Yuldasheva, F., Haqqulov, M., & Yarashova, M. (2025). QADIMGI TURKIY XALQLARDA "QUT" MAROSIMI XUSUSIDA. *Modern Science and Research*, 4(3), 132–136. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/72375>
15. Yarashova , M., & Rahimova, N. (2025). JADIDCHILARNING MA'RIFATPARVARLIK HARAKATLARI VA ULARNING XALQ MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI O'RNI. *Modern Science and Research*, 4(3), 398–408. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/7306>

16. Yarashova, M. (2025). TAQINCHOQLAR VA ULARNING AHOLI ETNIK HAYOTIDA TUTGAN O'RNI. *Modern Science and Research*, 4(3), 778–790. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/72864>
17. Gulyamov, A., Yarashova, M., & Karimov, S. (2025). BUXORO VOHASIDA MATO VA MATO TAYYORLASH USULLARI. PAXTA. G'UZAK. JUN. XALAJI. BO'Z. OLACHA. BEQASAM. BAXMAL. ADRAS. *Modern Science and Research*, 4(3), 330–340. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/73808>
18. Xayrullayev , U., Sadullayev, U. ., Yarashova, M., & Boltayev, O. (2025). XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA QO'SHNI DAVLATLARNING POLSHAGA NISBATAN YURITGAN SIYOSATI. *Modern Science and Research*, 4(3), 420–432. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/74107>
19. Yarashova, M., & Rahimova , N. (2025). FAYZULLA XO'JAYEV ILMIY FAOLIYATINING DASTLABKI DAVRI. *Modern Science and Research*, 4(3), 448–457. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/74113>
20. Boltayev , O., Yarashova , M. ., Xayrullayev, U. ., & Sadullayev, U. (2025). OYROT QABILASI VA ULARNING DAVLATCHILIK ASOSLARING SHAKLANISHIGA UMUMIY TAVSIF. *Modern Science and Research*, 4(3), 600–608. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/75573>
21. Yarashova, M., Boltayev, O. ., Xayrullayev, U., & Sadullayev, U. (2025). BUXORO VOHASI AYOLLARINING AN'ANAVIY LIBOSLARI (XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA). *Modern Science and Research*, 4(3), 571–581. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/75785>
22. Yarashova, M. (2025). FRANS BOAS: ETNOANTROPOLOGIYA, MADANIYAT VA IRQIY DISKRIMINATSİYAGA QARSHI KURASH. *Modern Science and Research*, 4(4), 595–607. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/79259>
23. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. SCHOLAR, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
24. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. TADQIQOTLAR.UZ, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
25. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . ОБРАЗОВАНИЕ

НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 55–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035>

26. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>
27. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>
28. MB Bahodir o'g'li. (2024). Military Art of Turkish Khaganate in the Early Middle Ages. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 4(16), 223–227. <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2705/2586>
29. XORAZMSHOIDLAR DAVLATI HAYOTIDA TURKON XOTUNNING O'RNI. (2024). MEDICINE, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY: THEORY AND PRACTICE, 2(4), 463–469. <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5192>
30. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li. (2024). The coronation and campaigns of Alexander The Great. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(5), 400–412. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11222912>
31. Muyiddinov Bekali. (2024). COVERAGE OF LEGAL ISSUES IN "AVESTO". МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(6), 222–230. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12191420>
32. MUYIDDINOV BEKALI, & QORYOG'DIEV Z. (2022). ABOUT THE CONQUEST OF BUKHARA BY THE KHOREZMSHAHS. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(3), 158–161. Retrieved from <https://www.ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/383>
33. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li. (2024). History of State Institutions in the Kushan State, Which Founded Statehood on the Territory of Central Asia. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(9), 184–188. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/4070>
34. Bahodir o'g'li, M. B. (2024). Avesto is an Ancient Written Monument Containing Information About the Life of the Peoples of Central Asia. *Miasto Przyszłości*, 53, 970–975. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4982>

35. Muyiddinov Bekali. (2024). SOMONIYLAR DAVLATIDA HARBIYLARGA BERILGAN E'TIBOR VA HARBIY SAN'AT. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14209121>
36. Muyiddinov Bekali. (2024). O'ZLIKNI NAMOYON QILISHDA XALQ DOSTONLARINING AMALIY AHAMIYATI VA KITOBIY DOSTONLARNING O'ZIGA XOSLIGI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14528916>
37. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li, Muyiddinov Begali Bahodir o'g'li, & Boltayev Oxun Obid o'g'li. (2025). IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14605977>
38. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li, Muyiddinov Begali Bahodir o'g'li, & Boltayev Oxun Obid o'g'li. (2025). YOSHLAR DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA MILLIY TARBIYA VA TA'LIMNING AHAMIYATI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14606021>
39. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li, Muyiddinov Begali Bahodir o'g'li, & Boltayev Oxun Obid o'g'li. (2025). BUXORO AMIRLIGIDA 1900-1910-YILLARDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOT. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14606101>
40. Muyiddinov Bekali. (2025). ILK O'RTA ASRLARGA OID MUG' ARXIVINING TOPILISHI VA O'RGANILISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14680881>
41. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li, & Tursuntoshova Sabrina Toshpo'lat qizi. (2025). ABU RAYHON BERUNIY ILMIY MEROSIDA TARIX FANINING O'RNI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14735052>
42. Gadayeva Mohigul Muxamedovna, Toshpo`latova Shaxnoza Shuhratovna, & Muyiddinov Bekali. (2025). TARIX DARSLARINI O`QITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14863055>
43. Muyiddinov Bekali, Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna, & Gadayeva Mohigul Muxamedovna. (2025). TEMURIYLAR DAVRIDA KUTUBXONACHILIK, HUJJATCHILIK VA ISH YURITISHNING O'ZIGA XOSLIGI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14863114>
44. Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna, Gadayeva Mohigul Muxamedovna, & Muyiddinov Bekali. (2025). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TARKIB TOPTIRISH MODELI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14863169>
45. Muyiddinov Bekali. (2025). BUXORO AMIRLIGIDA DASTLABKI ARXIVLARNI SHAKLLANISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14902908>

46. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li, & Teshayeva Shahzoda Rahimovna. (2025, февраль 19). QADIMGI MISRDAN DARAK BERUVCHI TUTANXAMON - SIRLI FIR'AVN QABRINING TOPILISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14894992>
47. Muyiddinov Bekali. (2025). RESPUBLIKAMIZDA ARXIVLARNING SHAKLLANISHI VA TARMOQLI RAVISHDA KENGAYIB BORISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15023257>
48. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li, & Teshayeva Shahzoda Rahim qizi. (2025). MIRZO ULUG'BEKNING "TARIXI ARBA-ULUS" ASARI O'RTA OSIYO TARIXINI O'RGANISHDAGI MUHIM MANBA. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15098265>
49. Yuldasheva Feruza Yashin qizi, Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li, & Xayrullayev Umid Fayzullo o'g'li. (2025, апрель 5). AMIR TEMUR VORISLARI: SIYOSIY, HARBIY VA MADANIY MEROSNING DAVOMIYLIGI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15160941>
50. Yuldasheva Feruza Yashin qizi, Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li, & Xayrullayev Umid Fayzullo o'g'li. (2025, апрель 5). JAHONDA KINO SAN'ATINING RIVOJI VA ARXIV HUJJATLARINING SHAKLLANISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15160951>
51. Xayrullayev Umidjon Fayzulo o'g'li, Muydinov Bekali Bahodir o'g'li, & Yuldasheva Feruza Yashin qizi. (2025, апрель 5). POLSHANING I JAHON URUSHIDAN KEYINGI AHVOLI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15160956>
52. Xayrullayev, U. (2024). THE IDEA THAT MADE THE OTTOMAN STATE GREAT (RED APPLE II). Modern Science and Research, 3(2), 1071-1073.
53. Xayrullayev, U. (2024). BRIEFLY ABOUT THE "RED APPLE" MYTHOLOGY OF THE TURKS. Modern Science and Research, 3(1), 568-572.
54. Umidjon, X. (2024). Literacy and Information Exchange in the Ancient East and West. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(3), 179-183.
55. Xayrullayev, U. (2024). THE POSITION OF CENTRAL ASIAN GOVERNORSHIPS DURING THE PERIOD OF THE TURKISH KHANATE AND THE ARAB INVASION.
56. Xayrullayev, U. (2024). EFTALLAR DAVLATI VA TURK XOQONLIGIDA HUKMDORLIK LEGITIMATSIYASI. Modern Science and Research, 3(12), 843-851.
57. Xayrullayev, U. (2024). TURK XOQONLIGI VA ARABLAR BOSQINI DAVRIDА О'RTA OSIYO HOKIMLIKALARINING MAVQEYI. Modern Science and Research, 3(12), 339-343.

58. Xayrullayev, U., Sayfutdinov, F., & Rahmonova, S. (2025). SHAYBONIYLAR DAVLATI VA USMONLI TURKLAR DAVLATI O'RTASIDAGI DASTLABKI ALOQALAR TAVSIFI. Modern Science and Research, 4(1), 147-154.
59. Xayrullayev, U. (2025). BUXORO VILOYATINING IQTISODIY HOLATI (1990-1991 YILLAR). Modern Science and Research, 4(1), 1018-1024.
60. Umidjon, X. (2023). 1918-1939-yillarda Polshaning ichki siyosatidagi o'zgarishlar. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 42(42).
61. Xayrullayev, U. F. (2023). 1918-1939 YILLARDA POLSHANING ICHKI SIYOSATIDAGI O 'ZGARISHLAR. SCHOLAR, 1(28), 337-340.
62. Xayrullayev, U. (2025). MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORO VILOYATIDAGI IJTIMOIY HOLAT. Modern Science and Research, 4(2), 1186-1193.
63. Xayrullayev, U., & Farhodjonova, Z. (2025). MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA BUXORO VILOYATIDAGI IQTISODIY VAZIYAT. Modern Science and Research, 4(2), 494-503.
64. Rahmonova, S., Xayrullayev, U., & Sayfutdinov, F. (2025). "ОММАВИЙ МАДАНИЯТ" НИНГ МОХИЯТИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗИ, ХАРАКТЕРИ ВА РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ. Modern Science and Research, 4(1), 479-488.
65. Xayrullayev, U., Muydinov, B., & Yuldasheva, F. (2025). POLSHANING I JAHON URUSHIDAN KEYINGI AHVOLI. Modern Science and Research, 4(4), 36-48.